**«Virtual kartalar marafoni» aksiyasini o‘tkazish**
**Tartibi**

**Порядок**
**проведения акции «Марафон виртуальных карт»**

**2026-yil**

| | |
|---|---|
| **I. Umumiy qoidalar** | **I. Общие положения** |
| 1. Bank mijozlari uchun «Virtual kartalar marafoni» aksiyasi «Asia Alliance Bank» ATB (keyingi o‘rinlarda — Bank) tomonidan o‘tkaziladigan reklama kampaniyasi doirasida tashkil etiladi hamda mijozlarda Bankka nisbatan sodiqlikni shakllantirish, Visa va Humo to‘lov tizimlarining virtual bank kartalariga bo‘lgan qiziqishni oshirish, ularga bo‘lgan qiziqishni saqlab turish hamda mazkur mahsulotlarni bozorda targ‘ib qilishga qaratilgan. | 1. Акция «Марафон виртуальных карт» для клиентов Банка проводится в рамках рекламной кампании АКБ «Asia Alliance Bank» (далее Банк), направленной на формирование лояльного отношения клиентов к Организатору, а также на привлечение внимания клиентов к виртуальным банковским картам платежной системы Visa и Humo, поддержание интереса к ним и их продвижения на рынке. |
| 2. Mazkur Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi. Aksiyada ishtirok etish Ishtirokchilar uchun hech qanday mulkiy tavakkalchilikni keltirib chiqarmaydi hamda mazkur Tartibga muvofiq o‘tkaziladi. Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchilardan hech qanday to‘lov undirilmaydi. Aksiyaning sovrin jamg‘armasi to‘liq «Asia Alliance Bank» ATB mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi. | 2. Акция не является лотереей либо иной, основанной на риске игрой, участники не несут имущественных рисков, связанных с участием в Акции, и проводится в соответствии с настоящим Порядком. Процедура проведения Акции не связана с внесением участниками платы и призовой фонд Акции формируется исключительно за счет средств Банка. |
| 3. Aksiyada ishtirok etish majburiy emas. | 3. Участие в акции не является обязательным. |
| 4. Ushbu Tartib “Asia Alliance Bank” ATBning barcha tarkibiy bo‘linmalariga (bank xizmatlari markazlari, amaliyot boshqarmasi, mintaqaviy bank xizmatlari ofisi) nisbatan tatbiq etiladi. | 4. Действие настоящего Порядка распространяется на все структурные подразделения Банка (центры банковских услуг, операционное управление, региональные управления и т.п.). |
| 5. Ushbu Tartibda quyidagi atamalar va ta’riflardan foydalaniladi: | 5. В настоящем Порядке используются следующие термины и определения: |
| **Aksiya** – mijozlarning Tashkilotchiga nisbatan sadoqatini oshirish, yangi mijozlarning Visa va Humo virtual kartalariga bo‘lgan e’tiborini jalb etish, ularga bo‘lgan qiziqishni qo‘llab-quvvatlash hamda ularni bozorda yanada ilgari surish maqsadida tashkil etiladigan “Asia Alliance Bank” ATB tomonidan o‘tkazilayotgan aksiya; | **Акция** – акция от АКБ «Asia Alliance Bank», направленная на формирование лояльного отношения клиентов к Организатору, а также на привлечение внимания новых клиентов к банковским картам платежной системы Visa и Humo, поддержание интереса к ним и их продвижения на рынке. |
| **komissiya** – aksiyani o‘tkazish bo‘yicha maxsus Komissiya; | **комиссия** – специальная комиссия по проведению акции; |
| **tashkilotchi** – «Asia Alliance Bank» ATB; | **организатор** – АКБ « Asia Alliance Bank »; |

**tartib** – bankning yangi rivojlanish bosqichiga bag‘ishlangan va mijozlarni rag‘batlantirish maqsadida «Virtual kartalar marafoni» aksiyasini o‘tkazish tartibi;

**порядок** – Порядок проведения акции «Марафон виртуальных карт», приуроченной к новому этапу развития банка и направленной на поощрение клиентов;

**ishtirokchilar** — O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bo‘lib, ular belgilangan tartibda berilgan yashash guvohnomasi yoki identifikatsion ID-kartasiga ega bo‘lishlari hamda yutuqli o‘yin o‘tkazilayotgan kunga qadar 18 yoshga to‘lgan bo‘lishlari kerak. Shuningdek, ular “Asia Alliance Bank” ATB tomonidan chiqarilgan Mastercard xalqaro to‘lov tizimi bank kartalarining egasi bo‘lishlari lozim.

**участники** – граждане Республики Узбекистан либо иностранные граждане, лица без гражданства, при наличии у указанных категорий лиц вида на жительство или ID-карты, выданного в установленном порядке, достигшие возраста 18 лет на дату проведения розыгрыша, являющиеся держателями банковских карт международной платежной системы Mastercard, эмитированных в АКБ «Asia Alliance Bank».

## II. Aksiya o’tkazish muddatlari

## II. Сроки проведения акции

6. Aksiya o’tkazish muddati: 2026-yil 5-avgustdan 2026-yil 31-dekabr (shu kuni ham qo‘shilgan holda) gacha.

6. Период проведения акции: с 5 августа 2026 года по 31 декабря 2026 года включительно.

7. Yutuqli o‘yinlar har oyda, 2026-yil 15-setnyabrdan boshlab, har oyning 15-sanasidan kechiktirmay, 2027-yil 15-yanvargacha (shu kuni ham kiritilgan holda) o‘tkaziladi.

7. Розыгрыши проводятся ежемесячно, не позднее 15 числа каждого месяца, начиная с 15 сентября 2026 года и до 15 января 2027 года включительно.

Aksiya yutuqli o‘yinlari o‘tkazilish sanalari va sovg‘alar nomi:

Даты проведения розыгрышей и наименование призов Акции:

**1-yutuqli o‘yin** 2026-yil 5-avgustdan 31-avgustgacha bo‘lgan davrda amalga oshirilgan tranzaksiyalar bo‘yicha yutuqli o‘yin 2026-yil 15-sentyabrga qadar o‘tkaziladi

**1-й розыгрыш** состоится не позднее 15 сентября 2026 года по транзакциям, совершенным в период с 5 по 31 августа 2026 года:

Sovg‘alar nomi:

umumiy miqdori 50 000 000 (ellik million) so‘m bo‘lgan pul mukofoti mazkur yutuqli o‘yinning 5 (besh) nafar g‘olibi o‘rtasida teng taqsimlanadi, har bir g‘olibga 10 000 000 (o‘n million) so‘mdan beriladi. uch million) so‘mlik bitta sertifikat;

денежный приз в общем размере 50 000 000 (пятьдесят миллионов) сум, распределяемый поровну между 5 (пятью) Победителями настоящего розыгрыша, по 10 000 000 (десять миллионов) сум каждому Победителю.

**2-yutuqli o‘yin** (2026-yil 1-sentyabrdan 30-sentyabrgacha bo‘lgan davrda amalga oshirilgan tranzaksiyalar bo‘yicha yutuqli o‘yin 2026-yil 15-oktabrga qadar o‘tkaziladi):

**2-й розыгрыш** состоится не позднее 15 октября 2026 года по транзакциям, совершенным в период с 1 сентября по 30 сентября 2026 года:

umumiy miqdori 50 000 000 (ellik million) so‘m bo‘lgan pul mukofoti mazkur yutuqli o‘yinning 5 (besh) nafar g‘olibi o‘rtasida teng taqsimlanadi, har bir g‘olibga 10 000 000 (o‘n million) so‘mdan beriladi.

денежный приз в общем размере 50 000 000 (пятьдесят миллионов) сум, распределяемый поровну между 5 (пятью) Победителями настоящего розыгрыша, по 10 000 000 (десять миллионов) сум каждому Победителю.

**3-yutuqli o‘yin** (2026-yil 1-oktabrdan 2026-yil 31-oktabrgacha bo‘lgan davrda amalga oshirilgan tranzaksiyalar bo‘yicha o‘yin 2026-yil 15-noyabrdan kechiktirmay o‘tkaziladi):

umumiy miqdori 50 000 000 (ellik million) so‘m bo‘lgan pul mukofoti mazkur yutuqli o‘yinning 5 (besh) nafar g‘olibi o‘rtasida teng taqsimlanadi, har bir g‘olibga 10 000 000 (o‘n million) so‘mdan beriladi.

**3-й розыгрыш** состоится не позднее 15 ноября 2026 года по транзакциям, совершенным в период с 1 октября 2026 года по 31 октября 2026 года:

денежный приз в общем размере 50 000 000 (пятьдесят миллионов) сум, распределяемый поровну между 5 (пятью) Победителями настоящего розыгрыша, по 10 000 000 (десять миллионов) сум каждому Победителю.

**4-yutuqli o‘yin** (2026-yil 1-noyabrdan 2026-yil 30-noyabrgacha bo‘lgan davrda amalga oshirilgan tranzaksiyalar bo‘yicha o‘yin 2026-yil 15-dekabrdan kechiktirmay o‘tkaziladi):

umumiy miqdori 50 000 000 (ellik million) so‘m bo‘lgan pul mukofoti mazkur yutuqli o‘yinning 5 (besh) nafar g‘olibi o‘rtasida teng taqsimlanadi, har bir g‘olibga 10 000 000 (o‘n million) so‘mdan beriladi.

**4-й розыгрыш** состоится не позднее 15 декабря 2026 года по транзакциям, совершенным в период с 1 ноября 2026 года по 30 ноября 2026 года:

денежный приз в общем размере 50 000 000 (пятьдесят миллионов) сум, распределяемый поровну между 5 (пятью) Победителями настоящего розыгрыша, по 10 000 000 (десять миллионов) сум каждому Победителю.

**5-yutuqli o‘yin** (2026-yil 1-dekabrdan 2026-yil 31-dekabrgacha bo‘lgan davrda amalga oshirilgan tranzaksiyalar bo‘yicha o‘yin 2026-yil 15-yanvardan kechiktirmay o‘tkaziladi):

Super-sovrin – chet elga sayohat uchun 50 000 000 (ellik million) so‘m umumiy qiymatdagi 1 (bitta) turistik vaucher;

Chet elga sayohat uchun 30 000 000 (o‘ttiz million) so‘m umumiy qiymatdagi 1 (bitta) turistik vaucher;

Chet elga sayohat uchun 20 000 000 (yigirma million) so‘m umumiy qiymatdagi 1 (bitta) turistik vaucher.

**5-й розыгрыш** состоится не позднее 15 января 2027 года по транзакциям, совершенным в период с 1 декабря 2026 года по 31 декабря 2026 года:

Суперприз – 1 (один) туристический ваучер для поездки за рубеж общей стоимостью 50 000 000 (пятьдесят миллионов) сум;

1 (один) туристический ваучер для поездки за рубеж общей стоимостью 30 000 000 (тридцать миллионов) сум;

1 (один) туристический ваучер для поездки за рубеж общей стоимостью 20 000 000 (двадцать миллионов) сум;

8. Sovrinlar taqdimoti sanasi: yutuqli o‘yin o‘tkazilgan sanadan boshlab 30 kalendar kuni ichida.

8. Дата вручения призов: в течение 30 календарных дней после даты проведения розыгрыша.

## III. Aksiya ishtirokchilari

## III. Участники акции

9. Aksiya ishtirokchilari tomonidan barcha shartlarning bajarilishini nazorat qilish maqsadida, bank Boshqaruvining qarori bilan tasdiqlangan, tashkilotchi xodimlari orasidan ishchi guruh tuziladi.

10. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchilarning Tartibga to'liq roziligini bildiradi.

11. Tashkilotchi xodimlari aksiyada qatnashishi mumkin emas.

**IV. Aksiyada ishtirok etish shartlari**

12. Aksiyada ishtirok etish uchun 2026-yil 5-avgustdan 2026-yil 31-dekabrgacha (ushbu kun ham kiradi) bo'lgan davrda "Asia Alliance Bank" ATBning Visa yoki Humo to'lov tizimlari **virtual kartalari** orqali umumiy qiymati kamida 10 AQSH dollari yoki 120 000 so'm miqdorida ikki va undan ortiq to'lovni amalga oshirish lozim (to'lovlar terminallar orqali xalqaro va mahalliy operatsiyalarni, shuningdek, internet orqali xaridlarni o'z ichiga oladi). Aksiya natijalari har oyning 15-sanasida, har oy jamlanadi; so'nggi yutuq natijalari 2027-yil 15-yanvarda e'lon qilinadi. Aksiyada Visa/Humo virtual kartalari orqali kartadan kartaga pul o'tkazmalari, naqd pul yechish (kassa, bankomat yoki terminal orqali), konversion operatsiyalar, omonatlar va shunga o'xshash operatsiyalarni amalga oshirgan mijozlar ishtirok eta olmaydi.

13. Aksiya ishtirokchisida Visa va Humo to'lov tizimlarining virtual kartasi mavjud bo'lmagan taqdirda, ushbu kartalarni «Alliance Pay» mobil ilovasi orqali mazkur ikkala virtual kartani rasmiylashtirishi lozim.

14. Aksiya ishtirokchisida mazkur kartalardan birortasi mavjud bo‘lgan taqdirda, u Bankning «Alliance Pay» mobil ilovasi orqali mavjud bo‘lmagan ikkinchi virtual kartani rasmiylashtirishi lozim.

**V. Mukofot fondi**

15. Aksiyaning sovrin jamg‘armasiga quyidagi sovrinlar kiradi:

a) asosiy pul mukofotlari - 2026-yil avgust, sentabr, oktabr va noyabr oylarining har biri

9. Для контроля за выполнением всех условий участниками акции создаётся комиссия из числа работников организатора, утвержденная решением Правления банка.

10. Участие в акции подразумевает полное согласие участников акции с данным Порядком.

11. К участию в акции не допускаются работники организатора.

**IV. Условия участия в акции**

12. Для участия в Акции необходимо в период с 5 августа 2026 г. по 31 декабря 2026 г. (включительно) совершить с использованием **виртуальных карт** платежных систем Visa либо Humo АКБ «Asia Alliance Bank» два и более платежа на общую сумму не менее 10 долларов США, либо 120 000 сум (включая международные и локальные операции через терминалы, а также покупки через интернет). Итоги Акции подводятся ежемесячно, 15 числа каждого месяца; итоги последнего розыгрыша подводятся 15 января 2027 года. В Акции не участвуют клиенты, совершившие с использованием виртуальных карт Visa/Humo следующие операции: переводы с карты на карту, снятие наличных денежных средств (через кассу, банкомат или терминал), конверсионные операции, размещение вкладов и иные аналогичные операции.

13. При отсутствии у участника Акции виртуальных карт платежной системы Visa и Humo необходимо оформить две эти виртуальные карты через мобильное приложение Банка «Alliance Pay».

14. В случае если у участника есть одна из указанных карт необходимо оформить через мобильное приложение вторую не достающую виртуальную карту.

**V. Призовой фонд**

15. Призовой фонд акции включает в себя следующие призы:

Призовой фонд включает: а) основные денежные призы - по 50 000 000 сум за август-

uchun 50 000 000 so'mdan, jami 200 000 000 so'm, har oyda 5 nafar G'olib o'rtasida teng taqsimlanadi (har biriga 10 000 000 so'mdan);

b) yakuniy (super) mukofot - 2026-yil dekabr oyi uchun, xorijiy davlatlarga sayohat qilish uchun uchta turistik vaucher, jami qiymati 100 000 000 so'm: 1-o'rin - 50 000 000, 2-o'rin - 30 000 000, 3-o'rin - 20 000 000 so'm.

Aksiyaning umumiy mukofot jamg'armasi - 300 000 000 (uch yuz million) so'm.

ноябрь 2026, всего 200 000 000 сум, ежемесячно между 5 Победителями (по 10 000 000 сум);

b) финальный (супер) приз за декабрь - 3 туристических ваучера общей стоимостью 100 000 000 сум: за 1-е место - 50 000 000 сум, за 2-е место - 30 000 000 сум, за 3-е место - 20 000 000 сум.

Общий призовой фонд - 300 000 000 (триста миллионов) сум.

16. Tashkilotchi sovrinlar ro‘yxatini va ularning miqdorini o‘zgartirish yoki kengaytirish huquqiga ega.

Tashkilotchi aksiya ishtirokchiligiga oid yuzaga kelgan yo‘qotishlar, xarajatlar yoki boshqa har qanday sarf-xarajatlarni qoplab bermaydi va kompensatsiya to‘lamaydi.

16. Организатор имеет право изменить/расширить перечень и размер призов.

Организатор не возмещает и не компенсирует убытки, издержки и любые иные расходы, которые могут возникнуть у Участника, в связи с участием в акции.

## VI. Aksiyani o’tkazish tartibi

17. Ishchi guruh aksiyaning butun davri davomida har kuni operatsiyalar monitoringini olib boradi va aksiyaning barcha shartlarini bajargan ishtirokchilarni aniqlaydi. Aksiyaning barcha shartlarini bajargan ishtirokchilar alohida jadvalda har bir ishtirokchiga o‘z ishtirokchi raqami berilgan holda ko’rsatiladi.

Raqam berish potensial ishtirokchilar tomonidan aksiya shartlarini bajarishning xronologik ketma-ketligida amalga oshiriladi.

18. Aksiya shartlarini bajargan ishtirokchilarning raqamlari keltirilgan jadval har oyda, ushbu Tartibning 55-bandida ko‘rsatilgan tartibda e’lon qilinadi.

19. Aksiyaning har bir ishtirokchisi mustaqil ravishda, qulay usulda aksiyani o‘tkazish shartlari, aksiya ishtirokchilari ro‘yxati, sovrinlar o‘ynaladigan joy va vaqt haqidagi ma’lumotlar bilan tanishishi mumkin.

## VI. Порядок проведения акции

17. Комиссия ежедневно в течение всего периода проведения акции осуществляет мониторинг операций, в результате которого выявляются участники, выполнившие все условия акции. Участники, выполнившие все условия акции, выписываются в отдельную таблицу, где каждому участнику акции присваивается свой номер.

Присвоение номера осуществляется в хронологической последовательности выполнения условий акции потенциальными участниками.

18. Таблица с номерами участников, прошедших мониторинг совершённых действий, будет публиковаться ежемесячно в порядке, указанном в пункте 55 настоящего Порядка.

19. Каждый участник акции может самостоятельно удобным для себя способом ознакомится с информацией касательно условий акции, списка участников акции, места и времени проведения розыгрыша призов на сайте www.aab.uz.

## VII. Aksiya g‘oliblarini aniqlash tartibi

## VII. Порядок определения победителей акции

20. G‘oliblarni aniqlash har bir bosqichda sovrinlarning har bir toifasi bo‘yicha Random.org saytidagi generator yoki boshqa shunga o‘xshash dastur yordamida aksiya tashkilotchisining ixtiyoriga ko‘ra aksiya ishtirokchilari raqamlari orasidan tasodifiy raqamlarni tanlash yo‘li bilan bir marta amalga oshiriladi.

20. Определение победителей, для каждой категории призов на каждом этапе розыгрыша осуществляется один раз путем выбора случайных чисел с помощью генератора на сайте Random.org или любой другой аналогичной программы на усмотрение организатора, определяющей выигравшие номера участников путем случайного отбора среди номеров участников акции.

21. O‘yinida g‘olib bo‘lgan ishtirokchilar raqamlari keyingi boshqa sovrinlar va super sovrinlar o‘yinlarida qatnashishi mumkin.

21. Участники, выигравшие в розыгрыше, могут принимать участие в последующих розыгрышах и могут повторно получить призы и суперприз.

22. Aksiya g‘oliblarini aniqlash uchun tashkilotchi bank boshqaruvi raisining farmoyishiga asosan Aksiyani o‘tkazish bo‘yicha maxsus Komissiyani tuzadi.

22. Для определения победителей акции организатором создаётся специальная комиссия по проведению акции согласно распоряжению Председателя Правления банка.

23. Komissiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

komissiya raisi – bank boshqaruvi raisi;

komissiya a’zolari — chakana biznes, axborot texnologiyalari, marketing va ishlar boshqarmalari boshliqlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va O‘zbekiston Banklari Assotsiatsiyasi vakillari, har bir tashkliotdan bir nafardan;

23. В состав комиссии входят:

председатель комиссии – Председатель Правления банка;

члены комиссии – начальники управлений розничного бизнеса, маркетинга, информационных технологий, управления делами, представители Центрального банка Республики Узбекистан и Ассоциации банков Узбекистана - по одному человеку от каждого ведомства.

24. Komissiyaning vazifalariga quyidagilar kiradi:

-sovrin jamg'armasi o'yiniga tayyorgarlik ko'rishni nazorat qilish;

-aksiya ishtirokchilarining yakuniy ro'yxatini tasdiqlash;

-aksiya ishtirokchisi, agar u aksiya shartlarini - buzsa, uni chetlashtirish to'g'risida qaror qabul qilish;

-aksiya shartlarini o'zgartirish bo'yicha takliflar kiritish;

-fors-major holatlari natijasida aksiyani tugatish yoki to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilish;

24. В обязанности комиссии входит следующее:

контроль за подготовкой к проведению розыгрыша;

утверждение итогового списка участников акции;

принятие решения об исключении участника акции при нарушении им условий акции;

внесение предложений об изменении условий акции;

принятие решения о прекращении или приостановлении акции в результате возникновения форс-мажорных обстоятельств;

-aksiya tashkilotchisining talabiga ko’ra aksiya davomida yuzaga keladigan dolzarb masalalarni hal qilish;

-ushbu Tartibga muvofiq aksiya sovrinlari o'yinini o'tkazish;

-aksiya natijalarini tasdiqlash va tegishli bayonnomani rasmiylashtirish orqali sovrindorlarni aniqlash.

25. Komissiya majlisi uning a’zolarining koʻpchiligi ishtirokida vakolatli hisoblanadi.

26. Sovrinlar oʻyini natijalari boʻyicha Komissiya bayonnoma tuzadi, unda aksiyaning gʻolib ishtirokchilari toʻgʻrisidagi zarur ma’lumotlar koʻrsatiladi. Bayonnoma komissiya raisi, majlisda qatnashgan komissiya a’zolari tomonidan imzolanadi va tashkilotchida saqlanadi.

27. Protokolda quyidagilar aks ettiriladi:

-sovrinlar o'ynaladigan vaqt va joy;

-komissiya tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;

-sovrinni ko'rsatgan holda sovrinlar o'yinining natijalari va sovrinni yutgan ishtirokchi haqidagi ma'lumotlar.

28. Sovrinlar oʻyini natijalari va gʻoliblar toʻgʻrisidagi ma’lumotlar ushbu Tartibning 55-bandida belgilangan tartibda e’lon qilinadi.

29. Agar aksiya gʻoliblarini aniqlashda ushbu Tartibning 9-bandida koʻrsatilmagan shaxs yoxud muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxs aksiya gʻolibi boʻlganligi aniqlansa, tashkilotchi ushbu shaxsni g’oliblar ro’yxatidan chiqaradi va ushbu Tartibga muvofiq sovrinlar oʻyinini qayta oʻtkazish huquqini oʻzida saqlab qoladi.

решение текущих вопросов, возникающих в период проведения акции, по требованию организатора;

проведение розыгрыша призов акции в соответствии с настоящим Порядком;

подтверждение результатов проведения акции и определение победителей путем составления соответствующего протокола.

25. Заседание комиссии правомочно при участии простого большинства ее членов.

26. По итогам проведения розыгрыша призов Комиссией составляется протокол, в котором указывается информация о выигравших участниках акции. Протокол подписывается председателем комиссии, присутствующими на заседании членами комиссии и хранится в Управлении карточного бизнеса.

27. В Протоколе отражаются:

- время и место проведения розыгрыша призов;

- сведения о составе комиссии;

- результаты розыгрыша призов с указанием приза и сведений об участниках акции, выигравших приз.

28. Результаты розыгрыша призов и информация о победителях будет опубликована в порядке, указанном в пункте 55 настоящего Порядка.

29. В случае, если при определении победителей акции будет установлено, что победителем акции стало лицо, не указанное в пункте 9 настоящего Порядка, или недееспособное лицо или лицо, имеющее ограничение дееспособности, то организатор исключает данное лицо из списка победителей акции и оставляет за собой право провести розыгрыш призов повторно в соответствии с настоящим Порядком.

## VIII. Sovrinlarni olish tartibi va shartlari

30. Har bir ishtirokchi bir necha marta gʻolib boʻlishi mumkin. Sovrinlar aksiya gʻoliblariga taqdirlash marosimida topshiriladi, uni oʻtkazish

## VIII. Порядок и сроки получения призов

30. Каждый участник может быть победителем несколько раз. Вручение призов победителям акции проводится на церемонии награждения, о

joyi va vaqti aksiya tashkilotchisi tomonidan ushbu Tartibning 55-bandiga muvofiq sovrin oʻynalgan kundan boshlab 2 ish kunidan kechiktirmay eʼlon qilinadi.

Tashkilotchi aksiyaning gʻolibi sovrinni topshirish joyiga borish va qaytish bilan bogʻliq har qanday xarajatlarni qoplash majburiyatini oʻz zimmasiga olmaydi.

Shuningdek, Tashkilotchi sovrinlardan foydalanish natijasida gʻolibning sogʻligʻi (yoki hayoti), shuningdek, uchinchi shaxslarning mol-mulki, sogʻligʻi yoki hayotiga yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar emas.

31. Aksiya gʻoliblari sovrinni olish uchun taqdirlash marosimi oʻtkazilish sanasidan kamida 3 (uch) ish kuni oldin quyidagi hujjatlarni Tashkilotchiga taqdim etishlari lozim:

Shaxsni tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasi (Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti yoki ID-kartasi) — Oʻzbekiston fuqarolari uchun;

Yashash guvohnomasi yoki identifikatsion ID-kartaning asl nusxasi — chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslar uchun.

32. Aksiya gʻoliblari sovrinlarni olish toʻgʻrisida maʼlumotni quyidagi telefon raqamlari orqali ham olishlari mumkin: +(99871) 231-60-00 yoki 1270.

33. Aksiya g'oliblarining yutuq o'yinlari o'tkazilgan sanadan keyin 30 (o'ttiz) kalendar kun mobaynida shaxsini tasdiqlash maqsadida bankning filiallaridan biriga kelmasligi ularning sovrinni olishdan bosh tortgani sifatida baholanadi.

34. Aksiya ishtirokchisi oʻzi qoʻlga kiritgan sovrinni faqat ushbu Tartibda koʻrsatilgan barcha talablar bajarilgan taqdirdagina olishi mumkin.

35. Tashkilotchining aksiya g'oliblariga sovrinlarni berish bo'yicha majburiyati quyidagi hollarda tegishli tarzda bajarilgan hisoblanadi:

oylik pul sovrinlari bo'yicha - ushbu Tartibning 17-bandida ko'rsatilgan miqdordagi to'liq summa g'olibning karta hisobiga o'tkazilgan paytdan boshlab;

месте и времени проведения которой организатор акции объявляет в течении 2-х рабочих дней со дня проведения розыгрыша призов согласно пункту 55 настоящего Порядка.

Организатор не берет на себя обязательства по оплате каких-либо расходов, связанных с проездом победителя акции до места выдачи приза и обратно.

Организатор не несет ответственности за любой ущерб, нанесенный как здоровью (жизни) обладателей призов, так и имуществу, здоровью или жизни третьих лиц вследствии использования призов.

31. Победители акции для получения приза не позднее чем за 3 (три) рабочих дня до даты проведения церемонии награждения должны предоставить организатору следующие документы:

оригинал документа, удостоверяющего личность (паспорт/ID гражданина Республики Узбекистан) – для граждан Республики Узбекистан;

оригинал вида на жительство или ID-карты – для иностранных граждан, лиц без гражданства.

32. Информацию по получению призов победители акции также могут получить по номерам телефонов: +(99871) 231-60-00 или 1270.

33. Неявка победителей акции для подтверждения личности в один из филиалов банка в течение 30-ти календарных дней после даты проведения розыгрышей признается их отказом от получения приза.

34. Участник акции может получить выигранный им приз только при выполнении всех требований, указанных в настоящем Порядке.

35. Обязанность Организатора по выдаче победителям акции призов считается исполненной надлежащим образом:

- по ежемесячным денежным призам - с момента перечисления полной суммы (в размере, указанном в пункте 17 настоящего Порядка) на карточный счёт победителя;

yakuniy super sovrinlar (turistik vaucherlar) bo'yicha - vaucher g'olibga hech qanday ushlab qolishlarsiz shaxsan topshirilgan paytdan boshlab.

- по финальным суперпризам (туристическим ваучерам) - с момента личной передачи ваучера Победителю без каких-либо удержаний.

36. Aksiya Gʻoliblariga sovrinlar (har oylik pul mukofotlari hamda yakuniy turistik vaucherlar) mazkur Tartibning 15 va 17-bandlarida belgilangan miqdorda toʻliq hajmda, hech qanday ushlab qolishlarsiz taqdim etiladi.

36. Призы (ежемесячные денежные призы и финальные туристические ваучеры) предоставляются Победителям в полном размере, указанном в пунктах 15 и 17 настоящего Порядка, без каких-либо удержаний.

Sovrinlar boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi hamda boshqa majburiy toʻlovlar Tashkilotchi tomonidan oʻz mablagʻlari hisobidan, sovrin summasi (qiymati)dan tashqari qoʻshimcha ravishda hisoblab chiqariladi va toʻlanadi.

Налог на доходы физических лиц и иные обязательные платежи, предусмотренные законодательством Республики Узбекистан в отношении призов, исчисляются и уплачиваются Организатором за счёт собственных средств, сверх суммы/стоимости приза.

Agar sovrin yutib olgan Ishtirokchi uni olishni rad etsa yoki sovrinni olish uchun zarur boʻlgan hujjatlarni Tashkilotchiga belgilangan muddatda taqdim etmasa, Tashkilotchi mazkur shaxsni Aksiya gʻoliblari roʻyxatidan chiqarish hamda mazkur Tartibga muvofiq sovrin boʻyicha qayta qurʼa tashlashni oʻtkazish huquqini oʻzida saqlab qoladi.

В случае отказа участника, выигравшего приз, от его получения либо непредставления Организатору документов, необходимых для получения приза, в установленный срок, Организатор исключает данное лицо из списка победителей акции и оставляет за собой право провести повторный розыгрыш призов в соответствии с настоящим Порядком.

37. Super sovrinlar g'oliblarga shaxsan topshiriladi. Oylik pul sovrinlari g'olibning bankda shaxsi identifikatsiya qilingandan so'ng uning karta hisobiga o'tkaziladi.

37. Суперпризы вручаются победителям лично. Ежемесячные денежные призы перечисляются на карточный счет победителя после идентификации его личости в банке.

Aksiya g'olibi o'zining g'olib deb e'lon qilinishi munosabati bilan yuzaga keladigan huquq va majburiyatlarini to'liq yoki qisman uchinchi shaxslarga topshirish huquqiga ega emas.

Победитель акции не вправе уступать права и обязанности, возникающие в связи с объявлением его победителем, полностью или частично третьим лицам.

Pul sovrini naqd pul mablag'lari shaklida to'lanmaydi.

Выплата денежного приза наличными средствами не производится.

**IX. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

**IX. Права и ответственность сторон**

38. Aksiya gʻolibi aksiyada ishtirok etish va sovrinni olish bilan bogʻliq barcha xarajatlarni oʻz zimmasiga oladi.

38. Победитель акции берет на себя все расходы, связанные с участием в акции и получением приза.

39. Aksiyada ishtirok etish Ishtirokchining ushbu Tartib bilan tanishganligini, uning mazmunini tushunganligini va uning barcha shartlariga to'liq va so'zsiz roziligini bildirganligini anglatadi. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi Tashkilotchiga Aksiyani tashkil etish va o'tkazish,

39. Участие в Акции означает, что Участник ознакомился с настоящим Порядком, понимает его содержание и выражает полное и безусловное согласие со всеми его условиями. Принимая участие в Акции, Участник предоставляет Организатору согласие на сбор, обработку,

G'oliblarni aniqlash, sovrinlarni topshirish, shuningdek ushbu Tartibda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, saqlash, foydalanish, uzatish va ular ustida boshqa amallarni amalga oshirishga roziligini beradi. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash Tashkilotchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchiligi talablariga, jumladan maxfiylik, xavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni ta'minlash talablariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

хранение, использование, передачу и иные действия с его персональными данными, необходимыми для организации и проведения Акции, определения Победителей, вручения призов, а также исполнения иных обязательств, предусмотренных настоящим Порядком. Обработка персональных данных осуществляется Организатором с соблюдением требований законодательства Республики Узбекистан о персональных данных, включая требования по обеспечению конфиденциальности, безопасности и защите персональных данных.

40. Aksiyada g‘olib deb topilgan ishtirokchilar, qo‘shimcha roziligisiz, Tashkilotchiga va/yoki uning vakolatli vakiliga quyidagi huquqlarni beradi:
ularning ismi, familiyasi, otasining ismi, fotosuratini e’lon qilish, shuningdek aksiya haqida reklama intervyularini o‘tkazish va ularni reklama maqsadlarida — jumladan radio, televideniye, ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram, Telegram, YouTube), internet OAV hamda boshqa axborot tarqatish vositalarida joylashtirish; shuningdek, foto va video suratga olish orqali har qanday reklama materiallarini tayyorlash, ularni vaqt va hudud bo‘yicha hech qanday cheklovsiz, hamda qo‘shimcha haq to‘lamasdan foydalanish huquqi beriladi. Yutuq sovrinini olish uchun g‘olib o‘z shaxsini tasdiqlovchi hujjat — pasport yoki uni almashtiruvchi hujjatni taqdim etishi kerak.

40. Участники, признанные победителями акции, автоматически без дополнительного согласия предоставляют организатору и/или его уполномоченному представителю право на обнародование его имени, фамилии, отчества, фотографии, а также право на интервью об участии в акции в рекламных целях, в том числе для радио и телевидения, в социальных сетях (Facebook, Instagram, Telegram, Youtube), интернет-СМИ, равно как для иных средств распространения информации, право на фото- и видеосъемку для изготовления любых рекламных материалов без ограничения срока их использования, территории распространения и без выплаты дополнительного вознаграждения. Для получения выигранного приза победитель должен подтвердить
свою личность соответствующим документом, предоставив паспорт или другой документ, удостоверяющий личность.

41. Tashkilotchi quyidagi hollarda javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi:

− Aksiya ishtirokchilari tomonidan sovrinni olish uchun zarur hujjatlarning haqqoniyligi yoki o‘z vaqtida taqdim etilmasligi, bu ishtirokchilarning o‘z aybi yoki g‘olib va/yoki Tashkilotchining irodasiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa sabablarga ko‘ra yuzaga kelgan bo‘lsa;

41. Организатор не несет ответственность:

− за достоверность и несвоевременность предоставления участниками акции документов, необходимых для получения приза, по вине самих участников или по иным причинам;

– G‘oliblarning sovrinlarni olmasligi, talab qilmasligi yoki ulardan voz kechishi natijasida sovrinlarni topshira olmaslik holatlarida;

– G‘olib bilan aloqa o‘rnatishning imkoni bo‘lmagan hollarda;

– G‘oliblar tomonidan sovrinlarni olish tartibida belgilangan majburiyatlarning bajarilmasligi yoki o‘z vaqtida bajarilmasligi uchun.

– за неполучение победителями Акции призов в случае не востребования их или отказа от них;

– за невозможность связаться с победителем;

– за неисполнение (несвоевременное исполнение) победителями Акции обязанностей, предусмотренных порядком получения призов.

42. G‘olib bo‘lgan ishtirokchilarni aksiyani o‘tkazish tartibi bilan o‘z vaqtida tanishtirmaslik tegishli Sovrinni olish uchun tashkilotchiga zarur hujjatlarni taqdim etish talablari va muddatlarini buzish uchun asosli sabab bo‘lmaydi.

42. Несвоевременное ознакомление с Порядком проведения акции участниками, ставшими победителями, не является уважительной причиной для нарушения требований и сроков предоставления организатору необходимых документов для получения соответствующего приза.

43. Tashkilotchi ushbu Tartib shartlarini buzgan g‘oliblarga, shu jumladan aksiya sovrinlarini berish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etish muddatlarini buzganlarga, shuningdek, bunday ma’lumotlarni taqdim etmagan g‘oliblarga aksiya mukofotlarini berishni rad etish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

43. Организатор оставляет за собой право отказать в выдаче призов акции победителям, нарушившим условия настоящего Порядка, в том числе нарушившим сроки предоставления информации, необходимой для выдачи призов, равно как и победителям, не предоставившим такую информацию.

44. Zarur hollarda tashkilotchi vakolatli davlat organlariga taqdim etish uchun aksiya ishtirokchilaridan zarur ma’lumotlarni so‘rashga haqli.

44. В случае необходимости организатор вправе затребовать у участников акции необходимую информацию для предоставления в уполномоченные государственные органы.

45. Har qanday ob'ektiv sabablarga ko'ra rejalashtirilgan aksiyani o'tkazish mumkin bo'lmagan taqdirda, shu jumladan kompyuter viruslari bilan zararlanish, avtomatlashtirilgan bank tizimidagi, mobil aloqa tarmog'idagi nosozliklar, nuqsonlar, ruxsatsiz aralashuvlar, qalbakilashtirish, texnik nosozliklar yoki har qanday tashkilotchining nazorati ostida bo'lmagan sabablar, bu aksiyaning bajarilishi, xavfsizligi, adolatliligi, halolligi yoki to'g'ri o'tkazilishini buzadigan yoki ta'sir qiladigan sabab bo'lsa, tashkilotchi o'z hohishiga ko'ra aksiyani tugatishi, qayta rejalashtirishi yoki vaqtincha to'xtatib turishi mumkin.

45. В случае, если по какой-либо объективной причине акция не может проводиться так, как это запланировано, включая причины, вызванные заражением компьютерными вирусами, неполадками в автоматизированной банковской системе, сети мобильной связи, дефектами, несанкционированным вмешательством, фальсификацией, техническими неполадками или любой причиной, неконтролируемой организатором, которая искажает или затрагивает исполнение, безопасность, честность, целостность или надлежащее проведение акции, организатор может на свое усмотрение прекратить, изменить время или временно приостановить проведение акции.

| | |
|---|---|
| 46. Aksiya tashkilotchisi ushbu Tartibning 55-bandida ko‘rsatilgan tartibda tegishli ma’lumotlarni joylashtirish orqali aksiyani muddatidan oldin to‘xtatish yoki aksiyani o‘tkazish muddatini uzaytirish huquqini o‘zida saqlab qoladi. | 46. Организатор акции оставляет за собой право досрочно прекратить проведение акции или продлить сроки проведения акции, разместив соответствующую информацию в порядке, указанном в пункте 55 настоящего Порядка. |
| 47. Tashkilotchi ishtirokchining xatolarining har qanday oqibatlari, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan) yetkazilgan zararlar uchun javobgar emas. | 47. Организатор не отвечает за какие-либо последствия ошибок участника, включая понесенные убытки. |
| 48. Ishtirokchilar aksiyada ishtirok etish tartibiga rioya qilgan holda, aksiya tashkilotchisi yoki u vakolat bergan shaxslar aksiyada ishtirok etish chog‘ida taqdim etilgan o‘zlarining shaxsiy ma’lumotlarini aksiya maqsadlari uchun zarur bo‘lgan usullarda qayta ishlashiga, jumladan ko'rsatilgan ma'lumotlardan aksiya sovrinlarini o'z egalariga topshirishni tasdiqlash maqsadida, shuningdek, ushbu aksiyani o'tkazish bilan bog'liq maqsadlarda ishtirokchilar bilan individual muloqot qilish maqsadida foydalanishga haqli. | 48. При выполнении участниками порядка участия в акции, организатор акции, или уполномоченные им лица вправе обрабатывать их персональные данные, предоставленные в ходе участия в акции, способами, необходимыми для целей проведения акции, включая использование указанных данных для целей подтверждения вручения призов их обладателям, а также для целей индивидуального общения с участниками в связи с проведением настоящей акции. |
| Ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlari tashkilotchi tomonidan faqat ushbu aksiya bilan bog'liq holda foydalaniladi va ushbu aksiya bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda uchinchi shaxslarga berilmaydi. | Персональные данные участников будут использоваться организатором исключительно в связи с проведением настоящей акции и не будут предоставляться третьим лицам для других целей. |
| Aksiya davomida ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan barcha shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan, tashkilotchi yoki uning vakolatli shaxslari ularning mahfiylik rejimini ta'minlaydi va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'radi. | В отношении всех персональных данных, предоставленных участниками в ходе акции, организатором или уполномоченными им лицами будет соблюдаться режим их конфиденциальности и приниматься меры по обеспечению безопасности персональных данных. |
| Aksiya davrida ham, aksiya tugagandan keyin ham aksiyada ishtirok etish fakti, ishtirokchining o‘z shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlashga, elektron pochta orqali xabarlar (shaxsiy kabinet, telefon, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va h.k.) orqali ushbu aksiya bilan bog'liq reklama va tashkilotchidan ushbu aksiya bo‘yicha yozishmalar olishga roziligini bildiradi. | Факт участия в акции подразумевает согласие участника на обработку его персональных данных, получение сообщений на электронную почту (личный кабинет, телефон, а также через социальные сети и т.д.) рекламы и корреспонденции от организатора, касающихся данной акции как в период проведения акции, так и после окончания акции. |
| 49. Aktsiyaning barcha ishtirokchilari aksiyada qatnashish uchun qilgan barcha xarajatlarini mustaqil ravishda to‘laydilar. | 49. Все участники акции самостоятельно оплачивают все расходы, понесенные ими для участия в акции. |

50. Tashkilotchi aksiya haqida qo‘shimcha ma’lumotlarni joylashtirish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

51. Tashkilotchi o‘z hohishiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Tartibni inobatga olgan holda, mazkur Tartibni buzgan, buzg'unchi tarzda harakat qilgan yoki aksiya bilan bog'liq bo'lgan boshqa shaxsni bezovta qilish, haqorat qilish yoki tahdid qilish niyatida harakat qilgan har qanday shaxsning aksiyada ishtirok etish to‘g‘risidagi arizasini haqiqiy emas deb topishi, shuningdek aksiyada keyingi ishtirokini taqiqlashi mumkin.

52. Tashkilotchi aksiyada firibgarlikning oldini olish uchun istalgan vaqtda qo‘shimcha texnik cheklovlar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Tashkilotchi aksiyada ishtirok etishning halolligini tashkilotchida mavjud bo‘lgan texnik imkoniyatlardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Tartibni hisobga olgan holda mustaqil ravishda baholaydi.

53. Aksiya ishtirokchilari uni amalga oshirish davrida yuzaga keladigan barcha savollar bo‘yicha quyidagi telefon raqamlariga murojaat qilishlari mumkin: +(99871) 231-60-00 yoki 1270.

54. Aksiya ishtirokchilarini uni o‘tkazish shartlari to‘g‘risida xabardor qilish ushbu Tartibning 55-bandida belgilangan tartibda reklama ma’lumotlarini joylashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

55. Tashkilotchi aksiya ishtirokchilarini ushbu aksiya bilan bog‘liq barcha yangiliklar, o‘zgarishlar va boshqa axborot materiallari haqida quyidagi yo‘llar orqali xabardor qiladi: rasmiy veb-sahifa www.aab.uz dagi (“Yangiliklar” bo‘limida) reklama va axborot materiallarini (reklama video va audio roliklarini) joylashtirish orqali; shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallar va sahifalar orqali:

Telegram: t.me/asiaalliancebank;

50. Организатор оставляет за собой право размещать дополнительную информацию об акции.

51. Организатор на свое усмотрение с учётом законодательства Республики Узбекистан и настоящего Порядка может признать недействительными все заявки на участие, а также запретить дальнейшее участие в акции любому лицу, которое действует в нарушение настоящего Порядка, действует деструктивным образом или осуществляет действия с намерением досаждать, оскорблять, угрожать или причинять беспокойство любому лицу, которое может быть связано с акцией.

52. Организатор оставляет за собой право в любой момент вводить дополнительные технические ограничения, препятствующие мошенничеству в акции. Организатор самостоятельно осуществляет оценку добросовестности участия в акции на основании имеющихся у организатора технических возможностей и с учётом законодательства Республики Узбекистан и настоящего Порядка.

53. По всем вопросам, возникающим у участников акции в период ее проведения, они могут обращаться по следующим номерам телефонов: +(99871) 231-60-00 или 1270.

54. Информирование участников акции об условиях ее проведения осуществляется посредством размещения рекламной информации в порядке, указанном в пункте 55 настоящего Порядка.

55. Организатор информирует участников акции обо всех новостях, изменениях и иных информационных материалах, касательно данной акции путем размещения рекламно-информационных материалов (рекламные видео и аудио ролики) на официальной веб-странице Банка www.aab.uz (в разделе «Новости»), на каналах и страницах в социальных сетях:

Telegram t.me/asiaalliancebank

Facebook: www.facebook.com/AsiaAllianceBank;
Instagram: www.instagram.com/asia_alliance_bank.

Zarurat tug‘ilganda, Tashkilotchi o‘z tanloviga ko‘ra, ma’lumotlarni milliy va/yoki mintaqaviy telekanallar, boshqa internet saytlari, radiostansiyalar, tashqi reklama vositalari hamda savdo-ko‘ngilochar markazlardagi reklama orqali ham e’lon qilishi mumkin.

56. Tashkilotchi ishtirokchi va unga hamrohlik qiluvchi shaxsning sovrinlar o‘yinida/taqdirlash marosimida ishtirok etishi vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noxush holatlar, baxtsiz hodisalar va boshqa salbiy holatlar uchun javobgar emas.

57. Aksiyani o‘tkazish bilan bog‘liq barcha nizolar tashkilotchi va ishtirokchi o‘rtasidagi muzokaralar yo‘li bilan hal qilinadi. Tinchlik yo‘li bilan kelishuvga erishishning iloji bo‘lmasa, nizo O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq sud tartibida ko‘rib chiqilishi kerak.

58. Mazkur Tartibda nazarda tutilmagan masalalar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

**X. Yakuniy qoidalar**

59. Mazkur Tartib talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy javobgarlikka tortiladilar.

60. Mazkur Tartib Bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

61. Mazkur Tartib o’zbek va rus tillarida tuzilgan. Agar matnlar o’rtasida biron-bir tafovut yuzaga kelsa, rus tilida bayon etilgan matn ustuvor deb tan olinadi.

Facebook www.facebook.com/AsiaAllianceBank;

Instagram www.instagram.com/asia_alliance_bank,

а также при необходимости по выбору организатора на одном из национальных и/или региональных телеканалов, других интернет-сайтах, радиостанциях, через наружною рекламу и рекламу в торгово-развлекательных центрах.

56. Организатор не несёт ответственности за любые происшествия, несчастные случаи и иные негативные ситуации, которые могут возникнуть при поездке и во время пребывания участника акции и сопровождающего его лица для участия в розыгрыше призов/ церемонии награждения.

57. Все споры, связанные с проведением акции, решаются путем переговоров между организатором и участником. В случае невозможности прийти к согласию мирным путем, спор подлежит рассмотрению в суде согласно законодательству Республики Узбекистан.

58. Вопросы, не предусмотренные настоящим Порядком, регулируются законодательством Республики Узбекистан.

**X. Заключительные положения**

59. Лица, виновные в нарушении требований настоящего Порядка, несут дисциплинарную ответственность в порядке, установленном законодательством.

60. Настоящий Порядок вступает в силу с даты его утверждения Правлением банка.

61. Настоящий Порядок составлен на узбекском и русском языках. При этом в случае любого разночтения преимущественную силу имеет текст на русском языке.